

TTPUda “Yo`llarda xavfsizlikni ta'minlash” mavzusida tadbir o'tkazildi

2023-yil 8-noyabr kuni Toshkent shahar Turin politexnika universiteti talabalariga “Yo`llarda xavfsizlikni ta'minlash ” mavzusida tadbir o'tkazildi.

Tadbirda Toshkent shahar Turin politexnika universiteti 1-bosqich talabalari jalb etildi. Tadbir Respublika miqyosida sodir etilgan yo'l-transport hodisalari haqida olingan videorolikni qo'yib berishdan boshlandi.

Shundan so'ng so'zga Toshkent shahar IIBB YHXB Axborot xizmati boshlig'i podpolkovnik Q.P.Xudoyberganov chiqib, hozirgi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bu yo`llarda yo'l-transport hodisalarini oldini olish, fuqarolarga huquqiy tushunchalar berish ekanligi, shu boisdan YHX xodimlari tomonidan ta'lim va tarbiya maskanlarida o'sib kelayotgan yosh avlodlarga targ'ibot tadbirlarini doimiy o'tkazib kelayotganliklarini, o'quvchilar yo`llarda yo piyoda, yo haydovchi yoki yo'lovchi bolib harakat qilsinlar doim yo'l harakati qoidalariga amal qilishlari lozimligini aytib o'tdi. Yo'l harakati qoidalarini buzish holatlari ko'pincha tezlikni oshirish yoki voyaga yetmagan fuqarolarning o'zboshimchalik bilan transport vositalarini boshqarishi natijasida kelib chiqayotganligini aytib o'tdilar. Shu sababli joylarda tegishli reydtadbirlari o'tkazilayotganligini OAV orqali kunu tun yoritib fuqarolarga yetkazib borayotganligini tushuntirib o'tdilar.

Shundan so'ng so'zga Olmazor tumani 4-son IIB HPB katta profilaktika inspektori podpolkovnik Sh.N.Yusupov o'quvchi-talabalarga barcha talabalar avtotransport vositalarini boshqarayotganlarida yo'l-harakati qoidalariga amal qilgan

holatda boshqarishlari lozimligini aytib o'tdi.

Axborot xizmati xodimi kichik serjant O.T.Bozorov talabalarga aholi gavjum joylarda, katta yo'l trassalarida belgilangan harakatlanish joylaridan, ya'ni piyodalar yo'laklari, tunellardan, ko'tarma ko'priklardan o'tish kerakligi. Erinchoqlik oqibatida turli salbiy holatlar qurboniga aylanib qolmasliklarini, piyodalar yo'laklaridan o'tayotganda uyali aloqa vositalaridan, naushnik va boshqa chalg'ituvchi buyumlardan foydalanish ta'qiqlanishi, foydalanilsa YHX xodimlari tomonidan ma'muriy javobgarlikka tortilishi to'g'risida ogohlantirib o'tdilar. Bundan tashqari avtotransport vositalarini boshqarishdan avval avtotransport vositalarining texnik holatidan xabardor bo'lishlari kerakligini aytib o'tdilar.

Olmazor tumani IIO FMB 4-son IIB XQMBI katta leytenant O.Ismoilova yo'llarda harakatlanish vaqtida hushyorlikka amal qilishlari, bir oz vaqt hushyorlikni yo'qotib yo'l transport hodisasi qurboniga aylanib qolmasliklarini, yo'l belgilariga amal qilgan holda belgilanmagan joylardan yo'llarni kesib o'tmasliklarini, o'zlari bilgan qoidalarni atrofdagilarga ham targ'ib qilishlari lozimligini, o'z shaxsiy avtomobillarini boshqarishda ham kamarlarni taqib tezlikni oshirmagan holda o'z hayotlarini xavfga qo'ymasliklarini tushuntirib o'tdilar.

Ma'ruza so'nggida talabalarga mavzu yuzasidan o'zlari qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javoblar berilib yakunlandi va tyutorlar ichki tartib-qoidalarga barcha talabalar bo'ysunishi kerakligini aytib yig'ilishga yakun yasaldi.





